MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING OG‘ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Toshpo'latova Gulnoza O'rinboy qizi
Farg‘onadagi Xalqaro
Korea Universiteti o‘qituvchisi
E-mail:g.toshpulatova@nordicuniversity.org
ORCID: 0009-0005-0540-6688
https://doi.org/10.5281/zenodo.23211962

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy, kommunikativ va ijtimoiy ko‘nikmalari jadal shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarni faol muloqotga jalb etish, o‘z fikrini erkin va izchil ifodalashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Tezisda “3 ta rasm — 1 ta hikoya”, “Hikoya konstruktori”, “Men boshlayman — sen davom ettir”, “Xazina izlovchilar”, “Podkastchi bola” kabi interfaol metodlar yoritilgan.Interfaol metodlarning bolalar lug‘at boyligini oshirish, bog‘lanishli nutqini shakllantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va muloqot ko‘nikmalarini takomillashtirishdagi o‘rni asoslangan. Shuningdek, tarbiyachining interfaol ta’lim jarayonidagi roli hamda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, interfaol metodlar, hikoyalash, 3 ta rasm — 1 ta hikoya, hikoya konstruktori, men boshlayman — sen davom ettir, xazina izlovchilar, podkastchi bola, muloqot, lug‘at boyligi, nutqiy o‘yinlar, rolli o‘yinlar, ijodiy fikrlash, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются педагогические возможности использования интерактивных методов в развитии устной речи детей дошкольного возраста. Дошкольный возраст является важным этапом, в котором интенсивно формируются речевые, коммуникативные и социальные навыки ребёнка. В связи с этим особое значение имеет вовлечение детей в активное общение, формирование у них умения свободно и последовательно выражать свои мысли в процессе обучения и воспитания. В тезисе представлены такие интерактивные методы, как «3 картинки — 1 история», «Конструктор историй», «Я начинаю — ты продолжаешь», «Искатели сокровищ» и «Ребёнок-подкастер». Обоснована роль интерактивных методов в расширении словарного запаса детей, формировании связной речи, развитии самостоятельного мышления и совершенствовании коммуникативных навыков. Также раскрывается роль воспитателя в организации интерактивного образовательного процесса и подчёркивается необходимость учёта возрастных и индивидуальных особенностей детей. **Ключевые слова:** устная речь, интерактивные методы, рассказывание историй,

3 картинки — 1 история, конструктор историй, я начинаю — ты продолжаешь, искатели сокровищ, ребёнок-подкастер, общение, словарный запас, речевые игры, ролевые игры, творческое мышление, коммуникативная компетентность.

Abstract.

This article examines the pedagogical potential of using interactive methods to develop the oral speech of preschool children. The preschool period is an important stage of development during which children's speech, communication, and social skills develop rapidly. Therefore, engaging children in active communication and teaching them to express their thoughts freely and coherently is of particular importance in the educational process. The paper presents such interactive methods as "3 Pictures — 1 Story," "Story Constructor," "I Start — You Continue," "Treasure Hunters," and "Child Podcaster." The article substantiates the role of interactive methods in expanding children's vocabulary, developing coherent speech, fostering independent thinking, and improving communication skills. It also highlights the role of the teacher in organizing an interactive learning process and emphasizes the importance of taking children's age-related and individual characteristics into account.
Keywords: oral speech, interactive methods, storytelling, 3 Pictures — 1 Story, Story Constructor, I Start — You Continue, Treasure Hunters, Child Podcaster, communication, vocabulary, speech games, role-playing games, creative thinking, communicative competence.

Maktabgacha ta'lim tizimi bola shaxsining har tomonlama shakllanishida muhim bosqichdir. Ayniqsa, bu davrda bolaning nutqini rivojlantirish — uning fikrlash, tushunish va muloqot qilish qobiliyatlarini belgilovchi asosiy omildir. Bolaning nutqi uning ijtimoiylashuvi, atrofdagilar bilan aloqasi va o'qishga tayyorgarlik darajasini ko'rsatadi. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida nutq rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolaning so'z boyligi kengayadi, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish, savollarga javob berish, o'z fikrini ifodalash hamda tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi.An'anaviy ta'limiy faoliyatlarda tarbiyachining asosiy axborot beruvchi, bolaning esa tinglovchi sifatidagi ishtiroki ustun bo'lishi mumkin. Bunday yondashuv ayrim hollarda bolaning mustaqil fikrlashi va faol muloqotga kirishish imkoniyatlarini cheklaydi. Interfaol metodlar esa ta'lim jarayonining markaziga bolani qo'yib, uni faol fikrlash, savol berish, javob qaytarish, fikr almashish va ijodiy faoliyatga undaydi.

Interfaol metodlar — bu o'quvchi (bola)ning faolligiga asoslangan o'qitish uslublari bo'lib, ular jarayonda o'zaro muloqot, fikr almashish va ijodiy ishtirokni talab qiladi.

Maktabgacha ta'limda quyidagi interfaol metodlar eng samarali va zamonaviy metodlardan hisoblanadi: "3 ta rasm — 1 ta hikoya", "Hikoya konstruktori", "Men boshlayman — sen davom ettir", "Xazina izlovchilar", "Podkastchi bola".

"3 ta rasm — 1 ta hikoya"- metodning nomi uning asosiy mexanizmidan kelib chiqadi: tarbiyalanuvchiga uchta rasm beriladi va shu rasmlarni mazmunan bog'lab, bitta yaxlit hikoya tuzish vazifasi beriladi. Tarbiyachi uchta o'zaro bog'liq rasmni tanlaydi, rasmlar bolalarga ketma-ket ko'rsatiladi va "Rasmda kim bor?", "Nima bo'lyapti?", "Keyin nima bo'lishi mumkin?" kabi savollar beriladi. Bolalar rasmlar orasidagi sabab-oqibat va vaqt munosabatini aniqlaydilar. Har bir bola yoki kichik guruh uchta rasm asosida yaxlit hikoya tuzadi va yakunda bola hikoyasini mustaqil aytib beradi. Ushbu metod orqali tarbiyalanuvchilarda

-bog‘lanishli nutq;

-lug‘at boyligi; -gap tuzish; -ketma-ket fikrlash; -sabab-oqibat munosabatlarini tushunish; -monologik nutq; -tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi.

“Hikoya konstruktori” metodi-“Konstruktor” so‘zi bu yerda hikoyani alohida qismlardan “qurish” ma'nosida ishlatiladi. Ya'ni tarbiyalanuvchi tayyor hikoyani yodlamaydi, balki berilgan elementlarni birlashtirib o‘z hikoyasini quradi. Tarbiyachi turli kartochkalarni tayyorlaydi: Qahramon + joy + vaqt + harakat + muammo + yechim.Tarbiyalanuvchi tasodifiy yoki tarbiyachi tanlagan kartochkalarni oladi va ular asosida hikoya tuzadi.Tadqiqotlarda bolalarni hikoyachi sifatida faol jalb qilish va hikoya davomida so‘z ma'nolarini izohlash lug‘at rivojiga xizmat qilishi ko‘rsatilgan.Bu metod orqali tarbiyalanuvchilarda

-grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish;

-faol lug‘at; -hikoyaning boshlanishi, rivoji va yakunini shakllantirish; -ijodiy fikrlash; -mustaqil fikr bildirishni rivojlantiradi.

“Men boshlayman — sen davom ettir” metodi-tarbiyachi yoki bir bola hikoyani boshlaydi, boshqa bola esa uni davom ettiradi. Bu metod ayniqsa: -dialogik nutq; -monologik nutq; -tezkor fikrlash; -tinglash qobiliyati; -mantiqiy davom ettirish; -ijodkorlik; -so‘z boyligi; -gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishni -rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Xazina izlovchilar” metodi- tarbiyalanuvchilar xuddi “xazina izlovchi” kabi guruhda yashirilgan predmet, rasm yoki kartochkalarni izlaydilar. Ammo asosiy maqsad predmetni topish emas — topilgan narsa haqida gapirishdan iborat bo‘ladi. Shuning uchun bu metodni shunchaki “xazina qidirish o‘yini” emas, balki nutqiy faoliyatga yo‘naltirilgan izlanishli o‘yin sifatida tashkil qilish kerak. Masalan: “Men quyon rasmini topdim. Quyon o‘rmonda yashaydi. Uning quloqlari uzun. U sabzi yeydi. Quyon tez yuguradi.”

Bu metod tarbiyalanuvchilarda quyidagilarni rivojlantiradi?

-faol lug‘at; -predmetlarni tasvirlash; -savollarga to‘liq javob berish; -dialogik nutq; -mustaqil gapirish; -kuzatuvchanlik; -xotira; -guruhda muloqot qilish.

“Podkastchi bola” metodi-“Podkastchi” atamasi bolani mikrofon oldida mustaqil fikr bildiruvchi kichik suhbatdosh/hikoyachi sifatida tasavvur qilishdan kelib chiqadi. Bu metodning qiziqarli tomoni — bolaga “darsda javob beruvchi bola” emas, balki o‘z fikrini auditoriyaga yetkazuvchi kichik boshlovchi roli beriladi.Masalan “Bugun men sevimli hayvonim haqida gapirib bermoqchiman...”tarzida boshlash mumkin. Tarbiyachi mavzu beradi:

“Mening oilam”, “Mening sevimli o‘yinchog‘im”, “Men dam olish kunimda”, “Mening sevimli hayvonim”, “Bog‘chamizdagi qiziqarli voqea” Tarbiyalanuvchi 1–2 daqiqa davomida gapiradi,keyingi bosqichda boshqa bola “intervyuer” bo‘lib, unga 2–3 ta savol beradi.

Bu metod orqali tarbiyalanuvchilarda

-o‘z fikrini izchil ifodalash;

-talaffuz; -ovoz va intonatsiya; -lug‘at boyligi; -savolga to‘liq javob berish; -auditoriya oldida nutq so‘zlash; -kommunikativ faollik rivojlantiriladi.

Bu metodlarga zamonaviy nom berilishining sababi ularning mazmuni bolalar uchun qiziqarli, interaktiv, o‘yinli va bugungi ta’lim yondashuvlariga mos tarzda tashkil etilganidadir. Nomlar metodning asosiy faoliyatini qisqa va esda qolarli shaklda ifodalaydi.

Ushbu metodlarning pedagogik samaradorligi ularning bolani faol nutqiy jarayonga jalb etishi, mustaqil fikrlash va muloqotga undashi hamda lug‘at boyligi, bog‘lanishli, dialogik va monologik nutqni kompleks rivojlantirish imkoniyati bilan belgilanadi.

Xulosa. Shuni xulosa o‘rnida aytib o‘tishimiz kerakki, maktabgacha ta’limda bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Yuqoridagi kabi zamonaviy metod va usullar bolalarni faol nutqiy faoliyatga jalb etib, ularning lug‘at boyligi, bog‘lanishli nutqi, dialogik va monologik nutqi hamda ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodlarning o‘yin, rasm, hikoyalash va muloqotga asoslanganligi bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lib, mashg‘ulotlarni qiziqarli va faol tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli interfaol metodlarni maktabgacha ta’lim jarayonida muntazam va maqsadli qo‘llash bolalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2019. – 8–12b
2. Usmonova D. Muloqot madaniyatini shakllantirishda pedagogning o‘rni. – Toshkent, 2020. – 21–27b
3. Hasanov A. Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning samarasi. – “Ta’lim islohotlari” jurnali, 2019. – 14–19-b
4. L.Sanayeva. Interfaol metodlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish.- New Renaissance International Scientific journal//2023. -327-329bhttps://doi.org/10.5281/zenodo.17368534
5. F.Y.Boltayeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish.- XI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR Volume 04, Issue 05, 2026.-974-978b
6. Vaahtoranta E., Lenhart J., Suggate S., Lenhard W. Interactive Elaborative Storytelling: Engaging Children as Storytellers to Foster Vocabulary // Frontiers in Psychology. – 2019. .https://www.sciencedirect.com/science/article
7. Chaparro-Moreno L. J., Reali F., Maldonado-Carreño C. Wordless picture books boost preschoolers’ language production during shared reading // Early Childhood Research Quarterly. 2017.https://www.sciencedirect.com/science/article/
8. Leontyev A.N. Deятel’nost, soznanie, lichnost. – Moskva: Nauka, 1977. – 70–76-стр.
9. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 2002. – p. 41–49